“O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi qonuni imzolandi

“O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi qonuni imzolandi. Qonun 5 bob, 26 moddadan iborat. Qonunda Vazirlar Mahkamasi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qurilish vazirligi hamda davlat hokimiyati organlarining seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi vakolatlari belgilab berildi.

Unga ko’ra:

- Vazirlar Mahkamasi mas’ul davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, seysmik xavf darajasini kamaytirish bo’yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni nazorat qiladi.

- Seysmik xavfsizlikni ta’minlash obyektlari ahamiyatiga ko’ra 4 ta toifaga bo’linmoqda:

* xavflilik omili past (I toifa, vaqtincha pavilyonlar, kioskalar, omborlar v.b.);

* o’rta (II, yakka tartibdagi uy-joylar (3 qavatgacha), oromgohlar, umumiy ovqatlanish v.b.);

* yuqori (III, ko’priklar, tonnellar, yo’l o’tkazgichlar, o’rta va ko’p qavatli (3 va undan yuqori) uylar hamda mehmonxonalar, ta’lim muassasalari v.b.);

* o’ta yuqori (IV, suv omborlari to’g’onlari, GESlar, mudofaa obyektlari, radiaktiv moddalarni saqlash, tozalash va ko’mish obyektlari v.b.);

- Bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi bo’yicha tekshiruv va monitoringni o’tkazishning quyidagi tartibi o’rnatilmoqda:

* II–IV toifa obyektlari har besh yilda seysmik mustahkamlik bo’yicha vizual tekshiruvdan o’tkaziladi;

* III–IV toifa obyektlari har o’n yilda seysmik mustahkamlik bo’yicha instrumental texnik tekshiruvdan o’tkaziladi;

* suv omborlari to’g’onlari va gidroelektr stantsiyalarida instrumental texnik tekshiruvlar yiliga ikki marta o’tkaziladi;

* har bir kuchli zilziladan so’ng (5,0 magnitudali) suv omborlari to’g’onlarida zudlik bilan instrumental texnik tekshiruvlar o’tkaziladi.

- Kuchli zilzilalar natijasida zarar ko’rgan obyektlarni tiklash Davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari mablag’lari va boshqa taqiqlanmagan manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.

- Fuqarolarning seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi huquqlari va majburiyatlari belgilangan.

Eslatib o’tamiz, mazkur Qonun Oliy Majlis Senatining 31-iyul kungi XVII yalpi majlisida ma’qullangan edi.